

# Journal of Natural Science

*No1 (6)  
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н-к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**MADANIY O‘SIMLIKLARDA UCHRAYDIGAN ZAMBURUG‘  
KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI**

*Avalboyev Olimjon Narkuziyevich. Narmatov Rustamjon Abdurazakovich*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

[rustamnarmatov24@gmail.com](mailto:rustamnarmatov24@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada madaniy o‘simliklarda uchraydigan zamburug‘ kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari haqida ma‘lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamburug‘lar, kasalliklar, o‘simliklar, askoxitoz, ekologik guruhlar.

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения о грибковых заболеваниях культурных растений и мерах борьбы с ними.

**Ключевые слова:** грибы, болезни, растения, аскохитоз, экологические группы.

**Annotation:** This article provides information on fungal diseases of cultivated plants and measures to combat them.

**Key words:** Fungi, diseases, plants, ascochitosis, ecological groups.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini belgilovchi va katta daromad keltiradigan asosiy sohalardan dehqonchilik va bog‘dorchilik hisoblanadi. Bu sohani ilmiy asosda rivojlantirmasdan turib, aholi va sanoatimizning qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish mumkin emas. Shunday ekan, qishloq xo‘jalik sohasini, ya‘ni dehqonchilik va bog‘dorchilikni chuqur o‘rganib chiqib, qanday muammolar sodir bo‘lganligini aniqlab olish va ularning ijobiy yechimini topishni taqozo etadi. Hozirda ekologik sharoitning o‘zgarishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishda juda katta muammolar tug‘ilmoqda bulardan biri o‘simlik zamburug‘ kasalliklaridir.

O‘simliklarning qora dog‘ (alternariozlar) kasalligini *Alternaria* turkumiga mansub zamburug‘lar keltirib chiqaradi. Uning xarakterli belgilari o‘simlikning to‘qimalarida qoramtir dog‘larning hosil bo‘lishi (zamburug‘ning sporangiyasi va misellasi) paydo bo‘lishi oqibatida o‘simlik to‘qimalari yemirilib nobud bo‘lishidir. Ko‘pchilik holda unib rivojlanayotgan donli ekinlar, kartoshka, olma, nok, rezavor mevalarda uchrab katta zarar keltiradi.

Bu kasallik Jizzax viloyatida olma, karam (*Alternaria brassicae*) larning yer ustki a‘zolarini zararlashi bilan ma‘lum. Ularga qarshi kurash choralari: urug‘larni tanlab ekish, zararlangan o‘simlikni yo‘q qilish, tuproqni kasallangan o‘simliklar qoldig‘idan tozalash, o‘simlikning o‘sish davrida fungitsitlar bilan ishlov berib turish tadbirlari tavsiya etiladi.

O’simliklarning qora yara (antraknoz) kasalligini *Gloeosporium colletotrichum* va *Kabatiella* turkumlariga mansub zamburug’lar keltirib chiqaradi. Asosan, bu kasallik bilan dukkakli don va poliz ekinlari, tok, qizil sebarga, olma, qaroli, bodom, grek yong’og’i, sitruslar va boshqa o’simliklar zararlanadi.

Kasallangan o’simlik to’qimalari ustida qora yara paydo bo’ladi. Yaralar do’mboq dog’ ko’rinishda bo’ladi. Ayrim holda dog’ atrofida qizil hoshiya paydo bo’lishi mumkin. Bu hoshiya zamburug’ning yaltiroq sporalaridir. Kasallik kasallangan urug’idan yoki kasallangan o’simlik a’zosining qoldiqlaridan, tuproqdan, suv orqali, hasharotlar va shamol yordamida sog’lom o’simlikka yuqishi mumkin.

Qarshi kurash choralari chidamli navlarni yaratish va ekish, daraxt va butalarning zamburug’ bilan zararlangan novdalarini kesib olib yoqish, o’tchil o’simliklarni yulib butunlay yo’qotish, tuproqni kasallangan o’simlik qoldiqlaridan tozalash, kimyoviy ishlov berish kabi tadbirlar tavsiya etiladi.

O’simliklarning askoxitoz kasalligini *Ascochyta* turkumiga mansub zamburug’lar keltirib chiqaradi va kasallikning nomi zamburug’ turkumi nomi bilan ataladi.

Kasallikning xarakterli belgilari o’simlikning barglarida har xil kattalikda va shakldagi dog’larning paydo bo’lishi, poyasi va novdalarida hamda meva va urug’larida yaralar paydo bo’lishi bilan namoyon bo’ladi.



### **O’simliklarda uchraydigan zang kasilliklari**

Oqibatda kasallangan barglar qurib to’kiladi, poya mo’rtlashib quriydi, novdalari esa qurib, mevasi pishmaydi, urug’lari unib chiquvchanligini yo’qotadi. Bu kasallik ko’proq dukkakli-don, ekinlari, mevali daraxtlar va rezavorlarda ko’p uchraydi.

Qarshi kurash choralari: almashlab ekishni to'g'ri yo'lga qo'yish, bir tomonlama azotli o'g'it berishdan voz kechish, chidamli urug'larni tanlash, urug'larni saqlash qoidalariga qat'iy rioya qilish.

O'simliklarning oq chirish kasalligini *Sclerotinia sklerotiorum* zamburug'i keltirib chiqaradi. Bu kasallikka kungaboqar, dukkakli ekinlar, sabzavot ekinlari (xususan issiqxonalarda o'suvchi) tez chalinadi.

O'simlikning kasallangan joyida suvli shish, so'ng qo'ng'irdog' hosil qiladi. Nobud bo'lgan to'qimalarda oq rangdagi zamburug' tanasini hamda qora qoplam hosil qiladi. Oq chirish kasalligi sog'lom o'simlikka ekish materiallari, ko'chatlardan, kasallangan o'simlikning tuproqdagi qoldiqlari orqali yuqishi mumkin.

Qarshi kurash choralari: chuqur shudgor qilish, begona o'tlardan tozalash, kasallangan o'simlikni butunlay yo'qotish, sabzavotlarni saqlash qoidasiga rioya qilish.

Tok o'simligida bu kasallikni *Coniothyrium diplodiella* zamburug'i keltirib chiqaradi. Avvalo meva bandining o'zagi so'ng shingil va mevasi zararlanadi. Rangi qo'ng'ir tusga kiradi va ustki qismida qora dog'lar paydo bo'ladi. Namgarchilik ko'p bo'lganda bu kasallik avjiga chiqadi.

Kasallangan o'simlikga bordo suyuqligini purkash lozim, oltingugurt poroshogi bilan changlash kabi tadbirlar tavsiya etiladi.

O'simliklarda uchraydigan qorakuya kasalligini qorakuya (*Ustilago tritici*) va tosh kuya (*Tilletia controversa*) zamburug'lari keltirib chiqaradi. Bu zamburug' ko'proq bahorgi bug'doyga tushadi. Kasallik bug'doy boshog' tortganda yuzaga chiqadi. Kasallangan boshog'qda don o'rnida qora to'zondek chang qorakuya sporolari vujudga keladi. Bu sporelar urug'da qishlaydi. Bu kasallik bilan nafaqat bug'doy, balki arpa, sulini, tariq, makkajo'xori, go'mmay hatto piyoz ham kasallanadi.

Bug'doyning toshkuya kasalligi tabiatda keng tarqalgan. U asosan bug'doy, arpa va sulini zararlaydi. Zamburug'ning taraqqiyot sikli boshog' gullagan vaqtda gulning tugunchasiga o'rnashib oladi va miselliysi tez rivojlanadi hamda mustahkam po'stga o'ralib oladi. Bu sporelar toshdek qattiq bo'ladi, shuning uchun toshkuya deb ataladi. Bug'doyni yanchish paytida sporelar sog'lom urug'ga o'rnashib oladi. Bug'doy unish paytida zamburug'ning teliosporasi ham o'sadi. So'ng bazidiyalar hosil qilib, sporelaridan zamburug' miselliylari rivojlanadi. Sporelar shamol yordamida sog'lom boshog'ga tushadi.

O'simlikning urug'chiligiga e'tibor beriladi, urug' ekishdan oldin formalin (G:300) eritmasi bilan aralashtiriladi, yuviladi va 2 soat dimlanadi, simobli yoki oltingugurtli birikmalardan foydalanish mumkin.

O'simliklarning diplodioz kasalligini *Diplodia* turkumiga mansub zamburug'lar keltirib chiqaradi va kasallik nomi turkum nomidan olingandir. Kasallik

xavfli bo'lib 40 turga yaqin o'simlik turini zararlashi ma'lum. Jumladan, makkajo'xori, sholi, go'za, uzum, sabzavot va poliz ekinlarini, sitrus mevalarni zararlaydi. Masalan, makkajo'xori kasallanganda uning so'tasida oq qoplam parda hosil bo'ladi, kasallangan don qoramtir-qo'ng'ir rangga kiradi. Poyasining pastki bo'g'inlarida sinish, oq parda qoplami va qora mevatana ko'rinadi. Barglari ustida qoramtir-qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi. Hosildorlik keskin kamayib ketadi. Urug'ning sifati buzilib, to'yimligi yaroqsiz bo'lib qoladi.

Qarshi kurash choralari: almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilish (3-5 yil), kasallikka chidamli navlarni ekish, sog'lom so'talardan urug' olib uni yaxshi quritish hamda saqlanishiga e'tibor berish, fosfor-kaliy o'g'itlarni maromida berish, fungitsidlar bilan ishlov berib turish, o'simliklar qalinligini meyorlashtirish, kasallangan o'simlikni yo'q qilish kabi tadbirlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Arpaning pashmoloq kasalligini *Puccinia* anomala zamburug'i keltirib chiqaradi. Faqat arpani zararlaydi va uning 50 dan ortiq patogeni aniqlangan.

Kasallikning belgilari o'simlik bargining ustki tomonida va barg g'ilofida mayda (0,5 mm) har xil zang ko'rinishidagi dog'lar, zamburug'ning uridosporalari ko'rinadi. Bargning ostki qismida esa soxta chiziqli mayda qora yastiqchalar-teleytosporalar hosil qilganligi ko'zga tashlanadi.

Havo harorati +15+18 °C bo'lganda o'simlik yoppasiga kasallanishi mumkin, qo'zg'atuvchisi arpada saqlanadi.

Qarshi kurash choralari zang zamburug'iga o'xshash tadbirlar qo'llaniladi.

O'simlikning zang zamburug' kasalligini *Puccinia graminis* zamburug'i keltirib chiqaradi. Bu kasallikning 300 ga yaqin turi aniqlangan. Asosan bug'doy, arpa, sulii, javdar va qo'ng'irbosh oilasiga mansub o't o'simliklar bundan zararlanadi.

Kasallik belgilari o'simlik poyasida, barg qinida ayrim holda boshog'ining tangachalarida zang-qo'ng'ir dog'lar (yozgi tiredo sporalar) yoki qora (qishki bosqich teleytosporalar) bo'ladi.

Qarshi kurash choralari: atrofda zirk o'simligini yo'q qilish, chuqur shudgorlash, kompleks agrotexnikani qo'llab o'simlikning chidamligini orttirish, azotli o'g'it bilan oziqlantirish, fosforli-kaliy o'g'itlaridan foydalanish, kimyoviy preparatlar bilan ishlov berish kabi tadbirlar tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tabiatda zamburug'larning 100 mingga yaqin turi borligi aniqlagan. Zamburug'lar orasida foydali turlari juda ko'p uchraydi. Yashash va hayot kechirishga qarab turli ekologik guruhlarga (8 xil guruh) bo'lingan. Zamburug'lar orasida ko'plab o'simlik va hayvonlarda, hatto odamlarda ham kasallik tarqatuvchi zamburug'lar ko'p uchraydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Gorlenko N.V. Tuban o'simliklar. -T: “O'qituvchi”. 1995.
2. Ramzonova C.S. O'zbekiston zamburug'lari florasini. T. “Fan” nashriyoti. 1983.
3. Ramzonova C.S., Karimov M.A. O'zbekiston zamburug'lari florasini. -T.: “Fan”, 1987.
4. Ramzonova C.S. Oq palak (vilt) turkumiga mansub zamburug'larning biologiyasi va sistemasi // Dokt. diss. avtoreferati. -T. 1967.
5. Ramzonova C.S. Bada mog'orini qo'zg'atuvchi zamburug' biologiyasidan yangilik // Nomzod diss. avtoreferati. T. 1958.